

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YO‘LOVCHI TASHISHNING NAZARIY ASOSLARI

Y.F. Ozatbekov

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvshisi

Kalit so‘zlar: *transport tizimi, yo‘lovchi, xizmat ko‘rsatish, vaqt, sifat, samara, infratuzilma, temir yo‘l transporti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, transport xizmatlari.*


Transport tizimining asosiy funksiyalaridan biri yuqori sifat standartlariga rioya qilgan holda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishda o‘sib borayotgan ham miqdor ham sifat jihatdan talablariga mos taklif hajmini shakllantirish hisoblanadi. Mamlakat infratuzilmasida yo‘lovchi transporti alohida o‘rin tutadi hamda yuqori tez yurar poyezdlarda yo‘lovchilarni tashish bo‘lgan talabning o‘sishi sharoitida temir yo‘l transporti o‘ziga xos transport turi. Temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashishning asosiy vazifasi davlatlararo yo‘nalishlarda va mahalliy tashuvlarda yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli qondirishdan iborat. Mamlakatda yo‘lovchi tashish transportining samarali tashkil etilishi xodimlarning mehnat unumdorligi va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati samaradorligining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishda yo‘lovchi tashish faoliyati asosiy masalalardan hisoblanadi. Yo‘lovchi tashish faoliyatidagi muammolarni oldini olish, ularning ta‘sir darajasini kamaytirish va tizimning samarali rivojlanishi ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkilotlarning, shu jumladan temir yo‘l transportida tashishni tashkil etish tizimining mukammallik darajasiga bog‘liq.

Yo‘lovchilarni tashish faoliyatini tashkil etishda transport turlari iqtisodiy va texnik xususiyatlari jihatdan bir biridan farq qiladi, yo‘lovchilarni tashishda foydalaniladigan transport vositalari va aloqa yo‘llari bilan tavsiflanadi. Transport turlari tasnifi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm):

- yuk ko‘tarish imkoniyati;
- tashish tezligi;
- yoqilg‘i turi bo‘yicha;
- yo‘l izlarining o‘ziga xos xususiyatlari.






1-rasm. Yo'lovchi tashish bo'yicha transport turlari tasnifi²⁸

So'nggi yillarda yo'lovchi tashishga bo'lgan talabning oshishi temir yo'l transportini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi. Transport faoliyati natijalari mamlakat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanib, xalqaro iqtisodiy munosabatlariga bog'liqlik darajasini baholash imkoniyatini beradi. Transport tizimidan samarali foydalanish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy muammolari yechimini aniqlashda alohida rol tutadi. Mamlakat transport kompleksi faoliyatiga quyidagi talablar qo'yiladi (2-rasm).

Bugungi kunda transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga oshib bormoqda, ammo mazkur tizim ham miqdor ham sifat jihatdan iste'molchilar talabiga javob bermayapti. Shu nuqtai nazardan, yo'lovchi tashish sohasida bir qator muammolar vujudga kelmoqda. Transport turlari bo'yicha temir yo'l transportida yo'lovchi tashish alohida hamda milliy iqtisodiyotda yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega. Aholining tashishga bo'lgan zarurati ham ishlab chiqarish faoliyati ham madaniy-maishiy ehtiyojlar bilan bog'liq.

²⁸ O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Mamlakat transport kompleksi faoliyatiga qo'yilgan talablar²⁹

Xizmatlar bozorida temir yo'l transporti orqali yo'lovchi tashish tizimi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga va samaradorligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik hamda funksional vazifalarni amalga oshiradi. Ijtimoiy vazifalar quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

- temir yo'l chiptalarini sotish jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal etish;
- yo'lovchi vagonlarda va vokzallarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish madaniyatini va sifatini oshirish;

- texnik vositalarning ishonchliligi va yo'lovchi poyezdlarning tezligini oshirish.

Funksional vazifalarni amalga oshirish yo'nalishlari:

- transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish raqobatbardoshligini oshirish va ularning talabini prognozlash hamda tartibga solish;
- innovatsion ishlanmalar va rivojlangan xorij tajribalarini joriy etish hamda infratuzilmani rivojlantirish;
- tez yurar lokomotivlarni sotib olish hamda texnik salohiyatini oshirish.

Temir yo'l transporti mahalliy tashuvda yo'lovchilar uchun ushbu transport asosiy turi hisoblanadi. Raqobatlashgan bozor sharoitida innovatsion taraqqiyot va aholining transport bo'lgan ehtiyojlariga bo'lgan munosabati oshganligi bilan mamlakatda temir yo'l transportiga bo'lgan talab o'zgardi. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini tashkil etishga va uning rivojlanishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi:

- aholi soni va tarkibi;
- aholi turar joylari va sanoat korxonalarining joylashuvi;
- temir yo'l tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari;
- temir yo'l transport tizimining rivojlanish darajasi;

²⁹ Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

- yo'lovchi vagonlarning o'rtacha kunlik masofasi va tezligi;
- aholining iqtisodiy holati va sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajalari;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati;
- temir yo'l transportining yo'lovchi tashish tizimidagi o'rni;
- yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi temir yo'l xodimlarining professionallik darajasi.

Yo'lovchi tashuvlarining bunday nisbati va yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar yo'lovchi tashuvlarining ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini va jamiyatdagi iqtisodiy o'zgarishlarga sezgirlik bilan javob berishini ko'rsatadi. Majburiy to'langan minimal mablag'ning har bir safarda to'liq amalga oshishi muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida yo'lovchilar tomonidan quyidagi bir qator talablar qo'yiladi (1-javdal).

1-javdal

Yo'lovchilar tomonidan qo'yiladigan talablar³⁰

Talablar	Ijtimoiy – yo'lovchi tashuvlariga har doim va hara joyda zarurat mavjud va transport xizmatidan bir marta ham foydalanmagan kishi uchramaydi.
	Ergonomik – infratuzilmaning daromadga ko'ra inson ehtiyojlariga maksimal muvofiqligi.
	Gigiyenik va fiziologik – yo'lovchilarni suv ta'minoti, kanalizatsiya, ovqatlanish va havoni shamollatish tizimi va boshqalar bilan ta'minlash.
	Estetik – tashuvlar talabga javob beruvchi tashqi va ichki tuzilishga ega harakatlanuvchi tarkibda amalga oshirilishi kerak.
	Iqtisodiy – o'zgaruvchan tarif siyosatining amalga oshirilishi, ya'ni tashish narxlarini qulaylik darajasi, tezlik va mavsumga qarab yo'lovchi uchun maqbul darajada belgilanishi.

Yo'lovchiga sifatli transport xizmati ko'rsatish tizimini ana shu talablar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq, bunda ushbu tizim bir turdagi transport emas, balki yagona transport tizimining barcha imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Bu tizimning asosini tashkil qiluvchi shart-sharoitlar yo'lovchining "eshikdan eshikgacha" safar qilish imkoniyatini ta'minlash zarurligini anglatadi. Bu holda bitta chipta bilan bir nechta transport turlari ishtirokida aralash yo'lovchi tashishdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish xizmatlarini samarali tashkil etilishi aholining samarali ta'lim olishi va madaniy xizmatlardan foydalanish hamda ijtimoiy samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, fuqarolarning shaharlararo va xalqaro harakatlarining yaxshilanishiga va mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishga erishiladi. Yuqori tezyurar transportining rivojlanishi yo'lovchi tashish faoliyati bo'yicha avtomobil va havo transportlari o'rtasida temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishini samarali yagona transport tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bugungi kunda yuk va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojni oshib borayotgan sharoitda rivojlangan transport tizimisiz qondirish murakkab. O'zbekistonda 37 milliondan ortiq aholi mavjudligi yo'lovchi tashishni samarali tashkil etish zaruratni ko'rsatadi. Avtomobil transporti yo'lovchi tashish faoliyati bo'yicha iqlim

³⁰ Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



sharoitiga bog'liq bo'lganligi bilan yetakchi o'ringa ega, temir yo'l transportida tashiladigan yo'lovchilar soni umumiy yo'lovchi tashishning kam miqdorini egallaydi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ yo'lovchi tashish faoliyatidan faqat zarar ko'radi, ushbu yo'qotish yuk tashish hisobiga qoplanib kelinmoqda, bugungi kunda xizmat ko'rsatayotgan yo'lovchi poyezdlari iste'molchilar talabiga mos emas, ushbu sohada tarif tizimida va davlat siyosatida yechimini topmagan muammolar mavjud.

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi bois uning barcha hajm ko'rsatkichlari yuk tashish faoliyatiga qaraganda hisob-kitob metodi farq qiladi. Yo'lovchilarni tashish faoliyatini tashkil etishda harakatlanuvchi tarkibining ishlashi yo'lovchi lokomotiv poyezdlarining harakat jadvaliga bog'liq. Qatnov ko'p bo'lgan stansiyalarda yo'lovchi poyezdlarining jo'nab ketishi va kelish vaqtlari yo'lovchilar talabini hisobga olgan holda belgilaniladi.

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini baholashda texnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlardan foydalangan holda ularni uch guruhga ya'ni, miqdor, sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Yo'lovchi tashish ko'rsatkichi temir yo'l transporti korxonalari tomonidan ushbu faoliyat turi bo'yicha ish hajmini tavsiflaydi, mazkur ko'rsatkich yo'lovchilar soni sotilgan chiptalar soni orqali aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda temir yo'l transportida yo'lovchi tashishning nazariy asoslari kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu asoslar yo'lovchilarning xavfsizligi, ekologik barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va xizmat sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Rivojlantirish strategiyalari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, va yo'lovchi talablarini o'rganish orqali, temir yo'l transporti samaradorligini yana-da oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, barqaror va samarali transport tizimini shakllantirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Gulamov, A. A., Ozatbekov, Y. F., & Ozatbekova, O. N. (2022). Innovation-oriented way of development of a modern university. Journal of new century innovations, 15(3), 53-59.

2. Акбаров, М. И., & Озатбеков, Ю. Ф. Ў. (2019). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА ЙЎЛОВЧИ ТАШИШ ХИЗМАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАРКЕТИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИНИ ЎРНИ. Ресурсосберегающие технологии на транспорте, 20(1), 368-370.

3. Бедрин, Д. С. Оценка эффективности функционирования и развития транспортной инфраструктуры / Д. С. Бедрин, Ю. Ф. Озатбеков, Н. У. Ербосинов // Актуальные вопросы экономики транспорта высоких скоростей : Сборник научных статей национальной научно-практической конференции, Санкт-Петербург, 24 апреля 2019 года / Под ред. Н.А. Журавлевой. – Санкт-Петербург: Общество с ограниченной ответственностью "Институт независимых социально-экономических исследований - оценка", 2019. – С. 6-12. – EDN VUNROW.

4. Fayzullayev J.S. (2019) Improvement of Economic Efficiency of Development of Zoxidov A.A. (2018) Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. dis. Avtoref., Toshkent.